

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING BUDJETIDAGI SALMOG'I

Tojiboyeva Odinaxon Bahromjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

e-mail: odinaxontojiboyeva95@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14684688>

Annotatsiya. Ushbu Maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi, soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgatirishlar ko'rsatib o'tilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, uning 2022-2023-yillardagi o'zgarish ko'rsatkichlari muallif tomonidan o'rGANILGAN. Xorijiy mamalakatlar soliq tizimi bilan iqtisodiy-tahliliy taqqoslash yo'llari yoritib berilgan..

Tayanch so'z va iboralar: rezident, mulkiy daromadlar, moddiy naf, davlat budjeti, soliq tizimi, daromad solig'i.

AMOUNT OF PERSONAL INCOME TAX IN THE REPUBLIC BUDGET OF UZBEKISTAN

Abstract. The article describes the tax system of the Republic of Uzbekistan, the changes made to the tax legislation. The personal income tax and its change indicators for 2022-2023 were studied by the author. Ways of economic-analytical comparison with the tax system of foreign countries are highlighted.

Keywords: resident, property income, material benefit, state budget, income tax.

ДОЛЯ ПОДОХДНОГО НАЛОГА В БЮДЖЕТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье описывается налоговая система Республики Узбекистан, изменения, внесенные в налоговое законодательство. Автором изучен налог на доходы физических лиц и показатели его изменения за 2022-2023 годы. Выделены пути экономико-аналитического сопоставления с налоговой системой зарубежных стран

Ключевые слова: резидент, имущественный доход, материальная выгода, государственный бюджет, подоходный налог.

Kirish.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida soliq tizimi muhim richag bo'lib hisoblanadi.

Boisi, davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbai soliqlar orqali shakllanadi.

Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir.

Amaldagi soliq tizimizdagi 9 ta soliq turi mavjud bo'lib, bulardan har birining ulushi davlat budjeti parametrlarida alohida aks ettiriladi.

Misol uchun birgina jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga e’tibor beradigan bo‘lsak, qanday tartibdagi aholi qatlami ushbu soliq to‘lovchilari hisoblanadi degan savol tug‘iladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari deb quyidagilar e’tirof etilishi quyidagi ikki holatda amalga oshiriladi. Bular:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;
- 2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti tushumlarining asosiy manbalaridan biri jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisoblanadi. Ushbu soliq turi davlatning ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning ulushi davlat moliyaviy barqarorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur maqola jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining davlat budgetidagi salmog‘ini tahlil qilish va ushbu yo‘nalishda mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan.

Soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lishi va tegishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ketlikdagi 12 oylik davr davomida 183 kalendar kundan ko‘proq muddat O‘zbekiston Respublikasidi hududida faoliyat olib borishi talab etiladi. Soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan har qanday jismoniy shaxsning soliq solish obyekti safatida o‘rtacha har oy mobaynida oladigan daromadlaridan davlat budgetiga undiriladi hamda soliq bazasi har bir soliq solish obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha o‘rganilgan tadqiqotlarga to‘xtalib o‘tsak.

Liu Huaning (2015) ta’kidlashicha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq sifatida, soliq salmog‘i yuqori bo‘lganligi sababli, rezidentlarning iste’mol xatti-harakatlariga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladi.

Gentry va Hubbard (2002) olib brogan ilmiy izlanishlari davomida tobora progressiv soliq ostida yuqori harakatchanlikka erishish ehtimolini o‘rganishdi. Xususan, mualliflar yuqori soliq stavkalari va soliq stavkalarining progressivligini oshirish sharoitida yaxshiroq ishga o‘tish ehtimolini o‘rganib chiqdilar. Mualliflar iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosining soliq modellashtirish dasturi TAXSIM dan, jumladan, uy xo‘jaligining keljakdagi mumkin bo‘lgan marjinal soliq stavkasi va soliq tizimining progressivligi o‘zlarining soliq o‘zgaruvchilari o‘lchovlarini yaratish uchun foydalanishdi. Tadqiqot federal va shtat daromad solig‘i to‘lovlarini

bilan bir qatorda federal va shtat hukumatlarining turli marjinal daromad solig'i stavgalarini o'z ichiga oladi.¹

Tae-hwan Rhee (2012) ta'rifiga ko'ra daromad solig'ining progressivligi va yalpi ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi. Muallifning tadqiqoti faqat nazariyaning o'zi soliq tizimining progressivligi daromadlar tengligining oshishiga olib keladimi yoki yo'qligini aniqlay olmaydi, degan kuzatishi bilan turtki bo'ldi. Uning fikricha, bu masala, albatta, empirikdir, chunki munosabatlar boshqa narsalar qatori daromad taqsimoti, turli daromad guruhlari mehnat taklifining egiluvchanligi, migratsiya va tejash yoki iste'mol qilish moyilligiga bog'liq degan xulosaga kelgan.²

Eremenko (2019) ning dissertatsiya tadqiqotida daromadni soliqqa tortishda adolat tushunchasi va milliy soliq tizimini takomillashtirishga ta'sirini baholash kerak degan fikrni ilgari surgan.

Weller and Rao (2010) olib borgan tadqiqotlari natijasida iqtisodiy barqarorlikni oshirishda progressiv daromad solig'i siyosatining rolini baholadilar.

Hartman (2002) O'yin nazariyasi tahlili asosida progressiv soliqqa tortish iqtisodiy samaradorlikni oshirishimumkin bo'lgan mexanizmlarni o'rganishga harakat qildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, soliq stavgalarining progressiv tuzilishi kuchli manfaatdorguruqlar tomonidan ijara olish faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, qog'oz progressiv soliqqa tortish iqtisodiy samaradorlikni oshiradigan ko'proq ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatiga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani shakllantirishda daromad solig'i bo'yicha qiyosiy tahlil metodikasidan foydalanilgan bo'lib, xorijiy mamlakalarning soliq tizimi bilan taqqoslab o'rganilgan. Qolaversa, analiz, sintez, induksiya metodlariga tayanilgan holda, tadqiqot olib borilgan va yakuni bo'yicha xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 381-moddasi 1-qismiga muvofiq jismoniy shaxsning daromadlariga 12 foizlik soliq stavgasi bo'yicha soliq solinadi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 393-moddasi 1-qismiga asosan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarning deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

¹ <https://taxfoundation.org/income-taxes-affect-economy/>

² <https://www.aeaweb.org/conference/2013/retrieve.php?pdfid=394>

- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar. Boshqa hollarda daromadlarni soliqqa tortish qonunchilikka xilof hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga muvofiq daromad solig'ini to'lash tartibi daromad manbaidan yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida amalga oshiriladi. Deklaratsiya taqdim etishdan maqsad daromad oladigan jismoniy shaxslar qo'shimda ish joyiga ega bo'lsa, mulkni ijaraga berish, mol-mulkni sotish, O'zbekiston hududidan tashqarida olingan daromadlar evaziga soliq davrining 1-apreliдан kechiktirmagan tartibda o'zi istiqomad qilib turgan soliq inspeksiyasiga taqdim etishi so'raladi.

Daromad solig'ini rivojlangan mamlakatlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak Germaniyada amaldagi soliq tizimida daromad solig'i progressiv ya'ni o'sib boruvchi shkalarda hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning daromadiga soliq solish progressivdir. Boshqacha qilib aytganda, daromad qancha ko'p bo'lsa, to'lanadigan soliq stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi. 2023 yilda Germaniyada jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari 14%-45% ni tashkil qiladi.

Turmush qurmaganlar 277 825 evrodan yuqori daromad solig'i bo'yicha 45% miqdorida to'laydilar.

1-jadval

Germaniyada shaxsiy daromad solig'i stavkalari, 2023-yil³

Soliq	Soliq bazasi €
0	10 347 gacha
14%-24%	10,909-15,999
24%-42%	16 000-62 809
42%	62,810-277,825
45%	277 826 va undan yuqori

Daromad solig'iga qo'shimcha tarzda barcha jismoniy shaxslar va biznes solig'i to'lovchilari biznes daromadlari uchun, jamoat a'zolari esa 8% -9% miqdorida cherkov solig'ini to'laydilar. Angliya davlatida daromadlar Germaniya soliq qonunchiligidan biroz farqli ravishda quyidagi 2-jadvalga muvofiq 4 toifaga ajratilgan. Ularda shaxsiy nafaqalar yevrogacha 0% stavkada soliq solinmaydi. Asosiy stavkada ya'ni o'rtacha daromad solig'i 20% dan boshlab daromad oshib borgani sari o'sib boruvchi stavkada 0%, 20%, 40%, 45% gacha soliqqa tortiladi.

2-jadval

³ <https://www.worldwide-tax.com/germany/germany-taxes.asp>

Angliyada daromad solig'i stavkalari va ko'rsatkichlari⁴

Band	Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
Shaxsiy nafaqa	12 570 funt sterlinggacha	0%
Asosiy stavka	12 571 funt sterlingdan 50 270 funtgacha	20%
Yuqori stavka	50 271 funt sterlingdan 125 140 funtgacha	40%
Qo'shimcha stavka	£ 125,140 dan ortiq	45%

Angliyada soliq qonunchiliga muvofiq joriy etilgan soliqlar bir yil ya'ni joriy soliq yili 2023-yil 6-apreldan 2024-yil 5-aprelgacha amal qiladi. Keyingi yildan boshlab soliq bazasi boshqatdan joriy qilinadi. Agarda Angliyada 125,140 funtsterlingdan ortiq soliqqa tortiladigan daromad mavjud bo'lsa, fuqaroga shaxsiy nafaqa to'lanmaydi. AQSh bilan solishtirib tahlil qiladigan bo'lsak, dunyoda murakkab soliq tizimi mavjud davlatlardan biri hisoblanadi. Ularda federal soliqlar undirladi hamda AQSh konstitutsiyasiga muvofiq soliqlar shtatlardaning o'zlaridan kelib chiqqan holda joriy qilinadi yoki bekor qilinadi. Endi, quyidagi 2024-yilda topshirilishi kerak bo'lgan 2023 soliq yili uchun soliq stavkalari jadvaliga qaraydigan bo'lsak:

3-jadval

2023 yil uchun AQSh Federal daromad solig'i to'plami (to'ldirishning oxirgi muddati:

2024-yil 15-aprelgacha)⁵

	Uylanmagan	Turmush qurbanlar birgalikda ariza berganlar uchun	Turmush qurbanlar alohida ariza bergenlar uchun	Uy xo'jaligi boshlig'i
10%	\$0 –\$11,000	\$0 –\$11,000	\$0 –\$11,000	\$0 –\$15,700
12%	\$11,001-44,725	\$22,001-89,450	\$11,001-44,725	\$15,701-59,850
22%	\$44,726 -95,375	\$89,451-90,750	\$44,726 -95,375	\$59,851-95,350
24%	\$95,376-182,100	\$190,751-364,200	\$95,376-182,100	\$95,350-182,100

⁴ <https://www.gov.uk/income-tax-rates>⁵ <https://www.semanticscholar.org/paper/Macroeconomic-Effects-of-Progressive-Taxation->

32%	\$182,101-\$231,250	\$364,201-\$462,500	\$182,101-\$231,250	\$182,101-\$231,250
35%	\$231,251-\$578,125	\$462,500-\$693,750	\$231,251-\$346,875	\$231,251-\$578,100
37%	\$578,126+	\$693,751+	\$346,876+	\$578,101+

Boshqa federal davlatlar singari AQSh da ham soliqlar o'sib boruvchi stavkada qo'llaniladi.

Ularda soliqqa tortishning o'ziga xos uslublaridan biri soliq to'lovchilar daromadi hajmi bilan birlgilikda oilaviy holati, lavozimiga qarab soliqqa tortilar ekan. Biroq, Rhee va boshalarning tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQShning har bir shtatida o'rtacha soliq stavkasi va daromad solig'ning progressivligi 1979-2004 yillar davomida olib borilgan kuzatishlar natjasida progressivlik indeksining 0,01 ga oshishi yalpi davlat mahsulotini 0,5 foiz punktga kamayishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi.⁶

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan mamlakatlarda soliq tizimi, soliqqa tortish mexanizmi bilan tanishib chiqadigan bo'lsak:

Qozog'istonda soliq rezidentlari butun dunyo bo'ylab daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar, soliq norezidentlari esa faqat Qozog'istondan olingan daromadlariga soliqqa tortiladi.

Umumiyligi soliq stavkasi 10%.

Turkmanistonda rezidentlar odatda butun dunyo bo'ylab daromadlari, jumladan, ovqatlanish, uy-joy, boshqa joyga ko'chib o'tish kabi naqd nafaqalar uchun soliqqa tortiladi.

Umumiyligi soliq stavkasi 10%.

Qirg'izistonda soliq rezidentlari bo'lgan fuqarolar butun dunyo bo'ylab daromadlaridan soliqqa tortilishi kerak. Soliq maqsadlarida rezident bo'limgan Qirg'iziston fuqarolari va chet el fuqarolari faqat Qirg'izistondagi daromadlariga soliq solinadi. Ko'p turdag'i daromadlar uchun solinadigan soliq stavkasi umumiyligi 10%.

Tojikistonda norezident jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq solinadi. Soliq solish, birinchi navbatda, ushlab qolish orqali amalga oshiriladi. Biroq, ayrim cheklangan hollarda, norezident shaxslar o'z-o'zini baholashni talab qiladi. Muayyan shartlarda yoki ikki tomonlama soliq to'g'risidagi shartnomaga qoidalari mavjud bo'lganda, norezident jismoniy shaxslar Tojikistonda soliq solishdan ozod qilinishi mumkin. Shaxsiydaromad solig'i stavkalar rezidentning asosiy ish joyidagi shaxsiy chegirma summasidan ortiq soliq solinadigan daromadiga 12% stavka bo'yicha soliq solinadi. Norezidentlarning mehnat daromadlari 20% miqdorida

⁶ Rhee/27c7e355a46239bf5cc5db85a9a3f7917799ab90#citing-papers

soliqqa tortiladi. Soliq solinadigan boshqa daromadlar, sug‘urtalangan shaxs uchun ijtimoiy soliq bundan mustasno, chegirmalarsiz 15% stavka bo‘yicha soliqqa tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalda qo‘llanilayotgan daromad solig‘i quyidagi 4-jadvalda bat afsil keltriib o‘tilgan.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari⁷

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkalari (%)
Ish bilan ta’milangan daromad, ijara daromadi, kapital o‘sishi va boshqalar	12
Rezidentlar uchun dividendlar va foizlar	5

Yuqorigi ma’lumotlardan ko‘rinib turindiki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida joriy qilingan daromad solig‘i o‘rtacha 10-12% ni tashkil etar ekan. Norezident jismoniy shaxslarning O‘zbekistondagi manbalardan olinadigan shaxsiy daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari⁸

	Soliq obyekti	Soliq stavkalari, (%)
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo‘yicha olingan daromadlar	12


⁷ <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 31.12.2019_55-bob 381-modda

⁸ <https://lex.uz/> O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 31.12.2019_55-bob 382-modda

Oldingi yillar bilan solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, mamlakatimizda 2018-yilgacha soliqqa tortish tartibi progressiv usulda qo‘llanilgan bo‘lsa, proposional stavkaga o‘tganimizdan keyin budjetdagi tushumda sezilarli o‘zgarish qayd etildi.

Manbada ko‘rinib turibdiku, 2019-yildan boshlab davlat budjetiga qariyb 2 hissa ko‘p soliqlar kelib tushgan. Qolaversa ushbu ko‘rsatkich yillar kesimida oshib bogan. YaIM dagi ulushi ham 1,8 trln so‘mdan mos ravishda 2,6; 2,6 va 2,5 % ga oshgan.

Quyidagi (1-rasmida) tushumlar dinamikasi keltirilgan.



1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumi dinamikasi 2018-2021 yillar kesimida⁹

Iqtisodiyot va moliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2022-yildagi ijrosi bo‘yicha dastlabki natijalarito‘g‘risida bergen ma‘lumotlariga ko‘ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 24,3 trln so‘mni (shu jumladan, to‘lov manbaida ushlab qolinadigan soliq bo‘yicha –22,5 trln. so‘mni) tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 5,4 mlrd so‘mga yoki 28,4%ga oshgan. Bunda, qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022-yilda 393,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 3,4 mlrd so‘mga yoki 0,9%ga kamaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha tushumlarning o‘sishiga bir qator omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, budjet sektorida eng kam ish haqini 2021-yilga nisbatan o‘rtacha 14,7%ga oshirilishi hamda iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondini legallashtirib borilishi natijasida 2022-yilda jismoniy shaxslardan

⁹ <https://m.kun.uz/uz/news/2021/03/18/ozbekistonliklar-2020-yilda-1-000-000-000-som-kam-soliq-toladi>

olinadigan daromad solig'i to'lovchilari soni 5 018 mingtani tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 215 mingtaga yoki 8%ga oshdi.

Prezident qarori bilannorezidentlarning O'zbekistondan olinadigan daromadlaridan (dividendlar, foizlar va yuk tashishdan olinadigan daromadlardan tashqari) undiriladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi. 2022-yil 1-apreldan 2024-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrda jismoniy shaxslarning (O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari) aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalaridan dividendlar ko'rinishidagi daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etildi.

Quyidagi 2-rasmida keltrilgan ma'lumotlarga tayangan holda 2022-yil hamda 2023-yilning I choragi davomida budgetga kelib tushgan soliqlar tarkibida QQS hamda foyda solig'idan keyingi 3-o'rinda daromad solig'i 5237 mlrd. so'mdan 6622 mlrd. so'mgacha oshgani ma'lum bo'ldi.



	QQS	Aksiz solig'i	Foyda solig'i	JShODS	Resurs solig'i	Mol-mulk solig'i	Aylanmadan soliq	yer solig'i	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
2023	8399	3355	9521	6622	206	1316	556	1425	3544
2022	7591	3361	9281	5237	179	943	622	1114	3720

2-rasm. Soliq turlari bo'yicha 2022-2023-yilning I choragida budgetga tushgan tushumlar (mlrd. so'mda)¹⁰

Joriy 2023-yilda jismoniy shaxslar o'z daromadlarini ipoteka kreditlarini so'ndirishga yo'naltirganda, bir vaqtning o'zida turar joy qiymati (bugungi kunga kelib 300 mln so'm) bo'yicha talabni bekor qilgan holda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan daromad summasi 15 mln so'mdan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining

¹⁰ <https://www.soliq.uz/page/jismoniy-shaxslarga-soliq-solish> ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

80 baravarigacha (yoki 73,6 mln so‘m) oshirilmoqda 12. Davlat budjeti daromadlari prognozi 2023-yilda 232,107.1 mlrd. so‘m yoki YAIMga nisbatan 21,8 foiz bo‘lishi kutilayotgan bo‘lsa, uning ulushida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘I to‘lovchilari 5,5 mln dan ortiq kishini tashkil etadi. Shundan 242, 758 ming nafari ya‘ni 4,4 % ini YaTT lar tashkil etmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar asosida daromad solig‘ining budjetdagi ulushi ahali daromadlariga ta’siri hamda xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi bilan solishtirib o‘rganildi. Shundan ko‘rinib turibdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda daromad solig‘ining foiz stavkasi 10-12% qilib belgilangani mamlakatda soliq yukini kelib chiqishiga olib kelmaydi degan xulosaga kelinadi. O‘rganilgan ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda soliq yukini hisoblash mexanizmlari takomillshtirilmoqda shu bilan bir qatorda Laffer qonuniga muvofiq amaldagi soliq yuki ko‘rsatkichi 22 % deb belgilandi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, kam daromadli mamlakatlarda ushbu soliqning soliq solish bazasi odatda progressive tartibda soliqqa tortiladi. Shunday ekan, biz ham ushbu davlatlar qatoridan joy olishimiz uchun

- 1) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini oshirish kerak;
- 2) daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar va preferensiyalar ro‘yxatiga 25 yildan ko‘p akademik ish stajiga ega soliq to‘lovchilar uchun soliq stavkasini kamaytirish;
- 3) YaTT faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar uchun 5 yilgacha soliqqa tortmaslikyoki minimal foizda soliq soliq stavkasi belgilash kerak deb o‘ylayman. Chunki, ilg‘or iqtisodiy samaradorlikka erish uchun soliq tarixi bilan birgalikda olib borgan tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, soliq tortishda daromad oshib borgani sari progressiv tartibda soliqqa tortiladigan bo‘lsa davlat budgetiga kelib tushadigan daromad hajmi yuqori bo‘ladi. Boisi, mamlakatlar rivojlanishida daromad solig‘i yanada muhimroq daromad manbaiga aylanishi kerak.

REFERENCES

1. Hartman D.A. (2002). “Does progressive taxation redistribute income?” IPI Policy Report. [On-line]. 162, pp.1-12. Available: <https://www.ipi.org/docLib/PR162-Hartman-Redistribution.pdf-OpenElement.pdf> [May 21, 2020]
2. Liu, H., Chen, LP va Xu, JB (2015) Iste’molchilarning xulq-atvoriga soliq solishning ta’siri. Davlat moliyasi va soliq forumi, 3, 22-27.
3. Weller C.E. and Rao M. (2010) “Progressive tax policy and economic stability.” Journal of Economic Issues. [On-line]. 44(3), pp. 629-659. Available: <https://www.jstor.org/stable/20778707> [May 21, 2020].

4. Еременко Е.А. (2019) Концепция справедливости в налогообложении и ее влияние на совершенствование национальной налоговой системы: дис. канд. экон. наук: 00.10. –М., 2018. –165 с. Фактические поступления по налогам и платежам в государственный бюджет за 2005-2018 гг. Официальный интернет-ресурс КГД МФ РК. [Электронный ресурс] URL: <http://kgd.gov.kz/ru/content/fakticheskie-postupleniya-po-nalogam-i-platezham-v-gosudarstvennyy-byudzhet-za-2002-2018-gg> (дата обращения: 30.09.2019 г.).